



## DARSNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING AFZALLIKLARI

**Muallif:** Mingyasharova Sevara Abdulla qizi <sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14523772>

### ANNOTATSIYA

Maqolada yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlash va jahondagi o'z tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan kuchli bilimlar egasi etish, ta'lim-tarbiya sohasidagi innovatsiyalarni o'qituvchilar o'rtasida rivojlantirishning muhimligi bayon qilinmoqda. O'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish uchun yangi texnologiyalarni o'rganish, o'quvchilarning kreativligini oshirish, muammolarni echish va ishlab chiqish, so'nggi ma'lumotlarni doimo kuzatish kabi harakatlar qo'llashni tavsiya qiladi.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetentlik, innovatsiya, o'qituvchi, kasbiy, zamonaviy, kreativlik, salohiyat, adaptasiya, kompetent, konseptual, bilim, malaka, ko'nikma.

Kirish. Ta'lim tizimida sodir bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlar talabalarga yangi bilim, ko'nikma va malakalarni berish bilan bir qatorda, yoshlarimizning o'ziga va boshqa insonlarga, jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan o'zgarishini, vatanparvarlik g'oyalarini ongiga va qalbiga singdirishni ham ko'zda tutadi. Demak, oliy ta'lim faoliyati asosan talabalarimizni demokratik jamiyatda mustaqil fikrlaydigan, o'z dunyoqarashiga ega man'aviy komil shaxs bo'lib shakllanishiga qaratilgan bo'lishi lozim.

Asosiy qism. Kasbiy komponentlikni oshirishda pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayonini loyihalashtiriladi va buning natijasida talabalarning kasbiy faoliyatda yutuqqa erishish ko'rsatkichi oshiriladi. Texnologik yondoshuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi. Maqsadga yo'naltirilganlik, oraliq natijalarni tashxisli tekshirib borish, ta'limni alohida o'qitish lavhalariga ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib qayta-qayta takrorlash mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyasi g'oyasida mujassamlangan.

Ta'lim tizimini isloh qilishdagi ilmiy tadqiqotni o'tkazishda quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

- ilg'or o'qituvchilarning darslarini kuzatish, tajriba orttirish va tahlil qilish;
- professor-o'qituvchilar va talabalar bilan suhbat, anketa so'rovi o'tkazish.

O'qitishning interfaol texnologiyalari – bu ta'lim oluvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishdagi jarayonlarda faol bilishga oid va amaliy faoliyatga undaydigan texnologiyalardir. O'qituvchilarning bilishga oid faoliyati yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga bo'lgan intilish, qiziqish, shaxsiy va jamoaviy topshiriqlarni bajarishga

intilish, atrofdagilarning faoliyatiga intellektual-emotsional javob berishni anglatadi [3.66].

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini tarbiyalashda pedagogik texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini harakatlantiruvchi kuch va oldindan belgilab qo'yilgan aniq maqsad yo'lidan o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi. O'qituvchi faoliyatidagi barcha jarayonlar pedagogik texnologiyalar deyiladi. Yangi pedagogik texnologiyadan kutilgan maqsad nima, uning afzalliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga quyidagicha hosilalar asosida javob berish mumkin [4.143].

Yuqoridagi fikirlarga tayanilgan holda darsning samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning afzalliklarini quyidagi mulohazalarda ko'rishimiz mumkin. Jumladan:

yangi pedagogik texnologiya eng qulay va sodda usul; mustaqil fikrlashni o'rgatadi; ko'p tarmoqli; sodda va oson; esda qolishi kuchli; bilim boyligini oshiradi; vaqtdan yutamiz; qiziqarli o'tadi; darsning samaradorligini oshiradi; dunyoqarashni oshiradi; tafakkurni rivojlantiradi; talabalarni diqqat - e'tiborini tortadi; har bir talaba bilan individual munosabat paydo bo'ladi; xotirani kuchaytiradi; izlanishga Chorlaydi; talabalarni o'z ustida ishlashga da'vat etadi.

Hozirda barcha ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablarga ko'ra bo'lajak kadrlarni kasbiy-kommunikativ faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, ya'ni ularda kasbiy malaka, o'zgaruvchan sharoitga tez moslashish qobiliyati, kommunikativ kompetenlik, o'zining kommunikativ bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borish talab etiladi. Talabalarda kommunikativ bilimlardan ijodiy foydalanish ko'nikmalari rivojlangan bo'lishi lozim. Buning uchun esa oliy ta'lim jarayonidan talabalarni kommunikativ faoliyatga tayyorlab borish, ularda turli kompetentsiyalarni shakllantirish maqsadga muvofiq [5.367]

Zamonaviy ta'lim jarayoni bu talabalarga faqat bilim berish, ularda fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olingan bilimlardan foydalanish bo'yicha o'quv ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'lmay, balki ularga mustaqil ravishda kerakli axborotlarni qidirib topish, o'zlashtirish shakllari, usullari, vositalarini o'rgatishdan iborat [1]. Bakalavriat bosqichidagi talabalarda mustaqil bilimlarini zamon talabiga moslashtirib borish, ma'lumotlar oqimi ichidan kerakligini ajratib olish va ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish ularning keyingi bosqichdagi faoliyatlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda talabalarga turli fanlarni o'qitishda kompetentsiyaviy yondashuv keng tatbiq etilmoqda [4]. Shuningdek, ularga fanga oid bilim, ko'nikma, malakalar berishning o'zi etarli emasligi, hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarni turli vaziyatlarda amaliy qo'llashni shakllantirib borish lozim ekanligi o'z isbotini topdi. Shu sababdan kompetentsiyalarga bo'lgan talab uzluksiz ta'limning barcha bosqichlariga kirib bordi hamda amalda foydalanilmoqda.

Xulosa. Ta'lim va tarbiya masalasi bir necha ming yillik asosga ega bo'lsa-da, zamonaviy axborot almashish vositalari hamda elektron qo'llanmalar ta'lim tizimida keng qo'llanilishi kengayib borishi natijasida, doimiy tarzda zamoviy talablariga moslashib, fan-texnika yutuklariga hamohang ravishda takomillashib boradigan.

jarayon hisoblanadi [6]. Hozirgi vaqtda innovatsion ta'lim tizimining barpo etilishi, o'quv jarayoniga pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan o'z o'rnida va samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Bu ayniqsa o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalar, o'qitishni innovatsion metodlar bilan bir qatorda axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarga asoslangan o'qitishning yangi shakl, vositalaridan foydalanishga asoslangan. Bugungi kun bo'lajak mutaxassislariga faqatgina tayyor bilimlarni berib qolmay, ularga elektron-axborot hamda raqamli texnologiya manbalaridan foydalanishni o'rgatish, zamonaviy texnologiyalarni ixtiro qilish usullari hamda vositalarini yaratish bugungi kunning muhim masalalardan hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Sh. M. Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz 1-jild «O'zbekiston» Toshkent-2020, 12-bet

Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.

Nizomxonov S.A., Madaminov I. Pedagogning kasbiy faoliyatida axborot kommunikativ kompetentlikni oshirish yo'llari. // Zamonaviy ta'lim» jurnali, 2014, №10.

Mingyasharova S.A. "System of development of professional competences of future engineers in an informed educational environment"// Eurasian journal of mathematical theory and computer sciences. -2023y.-143b.

Mingyasharova S.A., Mamanov J.H. "Bo'lajak informatika fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish" T.: 2023y.-367b.

Mingyasharova S.A. "Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish jarayonida kasbiy kompetensiyani shakllantirish mexanizmlari" Nukus. 2024y -183b.